O’ZBEKISTON BARQAROR TURIZM TIZIMIDA EKOTURIZMNING O’RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Ilxomiddinova Madina Olimjon qizi
talaba, Toshkent davlat transport universiteti

Umarova Dilfuza Rahmatullayevna
“Menejment, marketing va turizm” kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’zbekistondagi ekoturizmning hozirgi holati va uni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi . Tadqiqotning maqsadi ekoturizmning barqaror turizm tizimidagi o’rni, mavjud muammolar va kelajakdagi rivojlanish yo’nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jaroyonida tahlil, taqqoslash va statistik ma’lumotlarni o’rganish metodlaridan foydalanildi.

Kalit so’zlar. Ekoturizm, barqaror rivojlanish, ekologiya, tabiiy resurslar, infratuzilma, investitsiya.

THE ROLE AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF ECOTOURISM WITHIN UZBEKISTAN’S SUSTAINABLE TOURISM SYSTEM

Ilkhomiddinova Madina Olimjon qizi
Student, Tashkent State Transport University

Umarova Dilfuza Rahmatullayevna
Associate Professor, Department of Management, Marketing, and Tourism
Tashkent State Transport University

Abstract. This article analyzes the current state of ecotourism in Uzbekistan and its development prospects. The study examines the role of ecotourism in the sustainable tourism system, exiting challanges, and future directions. Methods of analysis, comparison, and statistical data study were applied.

Keywords. Ecotourism,sustainable development, ecology, natural resources, infrastructure , investment.

So’ngi yillarda turizm sohasi jadal rivojlanib, global iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Biroq ommaviy turizmning kengayishi atrof – muhitga salbiy ta’sir ko’rsatib, tabiiy resurslarning kamayishiga olib kelmoqda. Ushbu zamonaviy muammolarni hisobga olgan holda, “inson – tabiat “ tizimidagi munosabatlarni uyg’unlashtirishga imkon beradigan rivojlanishning ustuvor yo’nalishlaridan biri – bu ekoturizm hisoblanadi. Ekoturizm (ecological tourism) – bu tabiatga zarar yetkazmasdan sayohat qilish, ekologik muhitni asrash va mahalliy aholining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishini qo’llab – quvvatlashga yo’naltirilgan turizm shaklidir. U nafaqat dam olish, balki ekologik tarbiya va madaniyatni shakllantirish vositasi ham hisoblanadi.Ommaviy turizmdan farqli o’laroq, ekoturizm tabiiy muhitga minimal zarar yetkazadi, mahalliy aholi bandligini ta’minlaydi va tabiatni muhofaza qilish fondlarini moliyalashtirishga yordam beradi. O’zbekiston Respublikasi Markziy Osiyo hududidagi davlatlar orasida ekologik turizmni rivojlantirish bo’yicha katta imkoniyatlarga ega bo’lgan va bu borada raqobatbardoshligi yuqori bo’lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Yuksak to’g’ cho’qqilari, uch ming yillik insoniyat tamadduniga guvoh shaharlari, cho’l va yashil vodiylar, zilol tog’ suv manbalari ushbu sohani rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratib beradi.

Ekoturizm barqaror turizm tizimining muhim yo'nalishi sifatida xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Buckley (2009) ekoturizmning iqtisodiy va ekologik ta'sirini tahlil qilib, uni barqaror turizm tizimining asosi sifatida belgilagan. Wearing va Neil (2009) esa ekoturizmning mahalliy jamoalar uchun ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatgan. UNWTO (2023) ma'lumotlariga ko'ra, ekoturizm global turizm bozorida eng tez o'sayotgan segment bo'lib, yillik o'sish sur'ati 16,1 foizni tashkil etmoqda (TIES, 2024).

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan ham qator chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024 – yil 12 – yanvardagi **PQ – 21 – sonli "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori[1]ga** asosan, ekoturizm sohasini rivojlantirishdagi muhim hujjatlardan biri hisoblanadi.Ushbu qaror birinchi marta ekoturizmni mustaqil huquqiy soha sifatida belgilab berdi – farmondan avval ekoturizm umumiy turizm qonunchiligi doirasida ko'rib chiqilar edi.Mazkur qarorga ko'ra, davlat qo'riqxonalari, milliy tabiat bog'lari, biosfera rezervatlari va tog'li hududlarda turistik klasterlarni tashkil etish, " Tabiatga sayohat " elektron platformasini yaratish vazifalari belgilangan (PQ – 21,2024).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025 – yil dekabr oyidagi **Oliy Majlisga Murojaatnomasida ekologiya va "yashil iqtisodiyot [2]"** masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Murojaatnomada 2026-yil barcha sohalarda, jumladan ekologiya tizimini rivojlantirishda tub burilish yili bo'lishi ta'kidlandi. Xususan, ekologiya sohasiga 2026 - yilda 1 trillion 900 milliard so'm yo'naltirilishi belgilandi (Mirziyoyev, 2025). Bundan tashqari, so'nggi besh yilda 6 ming megavattli quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalari ishga tushirilgani, umumiy generatsiyada "yashil" energiyaning ulushi 30 foizga

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024 – yil 12 – yanvardagi PQ – 21 – sonli "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori
[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025 – yil dekabr oyidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ekologiya va "yashil iqtisodiyot''

yetgani qayd etildi. Ushbu mablag'lar va "yashil energiya" siyosati bevosita ekoturizmni rivojlantirish uchun ham muhim asos yaratadi — ekologik barqarorlik va tabiiy hududlarni muhofaza qilish ekoturizmning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ekoturizmning barqaror turizm tizimidagi o'rnini tahlil qilishdan iborat.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Asosiy metodlar sifatida tahlil (analytical method), taqqoslash (comparative method), statistik ma'lumotlarni o'rganish va tizimli yondashuv (system approach) tanlandi.Tizimli yondashuv tanlangani sababi – ekoturizm bir vaqtda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarni o'z ichiga oladi . Taqqoslash metodi esa O'zbekiston ko'rsatkichlarini xalqaro tendensiyalar bilan solishtirish imkonini beradi. Tadqiqot 2021 – 2026 – yillar davridagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Manbalar sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy hisobotlari (stat.uz), Turizm qo'mitasining statistik ma'lumotlari, Butunjahon turizm tashkilotlari (UNWTO) hisobotlari, PQ -21 va PF – 102 qaror – farmonlari hamda Buckley (2009), Wearing va Neil (2009), TIES(2024) kabi xalqaro ilmiy nashrlar ishlatildi. Tadqiqot jarayonida ekoturizmning infratuzilma rivojlanishi, turistlar oqimi, mahalliy iqtisodiyot va ekologik ta'sir kabi to'rtta asosiy sohadagi ta'siri alohida tahlil qilindi. Ekoturizmning umumiy turizmdan ulushini aniqlashda milliy bog'lar, tog' hududlari va Orol dengizi hududlariga tashriflar bo'yicha mavjud ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqot cheklovlari sifatida ekoturizmga oid alohida rasmiy statistikaning hali to'liq shakllanmaganligini ta'kidlash lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun katta tabiiy salohiyat mavjud. Mamlakat hududidagi asosiy ekoturizm ob'ektlari: Ugam-Chatkal milliy tabiat bog'i, Zomin milliy tabiat bog'i, Nurota-Qizilqum biosfera rezervati, Hisor va Zarafshon tog' tizimlari

hamda Orol dengizi hududi. Ushbu hududlar tabiiy landshaftlarning xilma – xilligi , boy flora va fauna bilan turistlarni jalb qiladi.

1-jadval

O’zbekistonning asosiy ekoturizm xududlari

№	Hudud	Turi	Maydoni (ga)	Asosiy xususiyati
1.	Ugam-Chatkal	Milliy bog’	574 000	Tog’, flora xilma-xiligi
2.	Zomin	Milliy bog’	26 900	Archa o’rmonlari
3.	Nurota-Qizilqum	Biosfera rezervati	168 000	Cho’l ekotizimi
4.	Hisor	Davlat qo’riqxonasi	80 986	Tog’ landshafti
5.	Zarafshon	Milliy bog’	2 426	Buxoro bug’usi
6.	Orol dengizi	Ekoturizm zonasi	-	Noyob cho’l landshafti
7.	Quyi Amudaryo	Biosfer rezervati	68 717	Daryo deltasi, suv qushlari
8.	Surxon	Davlat qo’riqxonasi	23 522	Subtropik o’simliklar

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda ekoturizm uchun mo'ljallangan hududlarning umumiy maydoni 944 000 gektardan oshadi. Bu hududlarning xilma-xilligi — tog'dan cho'lgacha, archa o'rmonlaridan daryo deltasigacha — turli turistik segmentlarga xizmat qila olishini ko'rsatadi.

Umumiy turizm ko’rsatkichlari jihatidan 2025-yilda O’zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 11,7 million kishini tashkil etgan bo’lib, bu 2024 – yilga nisbatan 46,8 foizga ko’pdir.

2-jadval

O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar soni va turizm daromadi dinamikasi (2021–2025)

Yil	Turistlar soni	O’sish (%)	Turizm daromadi	Turistga to’gri keladigan o’rtacha harajat
2021	1 900 000	-	0,8mlrd$	~421$
2022	5 230 000	+175%	1,4mlrd$	~268$
2023	6 630 000	+27%	2,14mlrd$	~323$
2024	7 900 000	+19%	3,1mlrd$	~392$
2025	11 700 000	+46,8%	4,7mlrd$	~402$

Bu jadval ma'lumotlari bir qancha muhim tendensiyalarni ko'rsatmoqda. Birinchidan, 2021–2025-yillar oralig'ida turistlar soni 6 barobardan ziyod o'sdi — bu O'zbekiston turizmining pandemiyadan nafaqat tiklangani, balki yangi bosqichga o'tganini isbotlaydi. Ikkinchidan, turistga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat 2022-yildagi 268 dollardan 2025-yilda 402 dollarga ko'tarildi — bu sayyohlar sifatining va xizmat darajasining oshib borayotganini ko'rsatadi. 2017-yilga nisbatan esa bu ko'rsatkich 2 barobardan ziyod o'sgan (197 dollardan 402 dollarga).Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida xorijiy sayyohlarni jalb qilish bo'yicha dunyo bo'yicha eng yuqori o'sish qayd etilgan top-20 davlat qatoriga kirdi, 2019-yilga nisbatan o'sish 73 foizni tashkil etdi (UNWTO, 2025).

Ekoturizm ulushi jihatidan mamlakatga tashrif buyurayotgan turistlarning taxminan 10–15 foizi tabiat va ekoturizm ob'ektlariga qiziqish bildiradi, ya'ni 2025-yil ko'rsatkichiga asosan bu taxminan 1,2–1,8 million kishini tashkil etadi. Ushbu ulush milliy bog'lar, tog' marshrutlari va Orol dengizi hududlariga tashriflar asosida baholangan bo'lib, ekoturizmga oid alohida rasmiy statistika mavjud emasligi sababli ko'rsatkich taxminiy hisoblanadi.

3-jadval

2025-yilda O’zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar

(mamlakatlar kesimida)

№	Davlat	Turistlar soni	Ulushi (%)
1	Qirg’iziston	3,300,000	28,2%
2	Tojikiston	2,700,000	23,1%
3	Qozog’iston	2,700,000	23,1%
4	Rossiya	984,400	8,4%
5	Afg’oniston	476,700	4,1%
6	Turkmaniston	360,000	3,1%
7	Xitoy	280,000	2,4%
8	Turkiya	170,000	1,5%
9	Hindiston	80,000	0,7%
10	Janubiy Koreya	46,300	0,4%
11	Boshqalar	602,600	5,2%
	Jami	**11,700,000**	**100%**

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, O’zbekistonga tashrif buyuruvchi turistlarning 74,4 foizi qo’shni uch davlatdan — Qirg’iziston, Tojikiston va Qozog’istondan kelmoqda. Bu ko'rsatkich qisqa masofali, arzon ekoturizmga talab borligini ko'rsatadi — qo'shni mamlakatlar aholisi aynan tabiat, tog' va tabiiy hududlarga sayohatni afzal ko'radi. Binobarin, ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish birinchi navbatda mintaqaviy bozorga xizmat qiladi. Ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun 2030-yilgacha 500 million AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb etish rejalashtirilgan bo’lib, bu mablag’lar ekologik mehmonxonalar, transport tizimi, turistik marshrutlar va xizmat ko’rsatish ob’ektlarini rivojlantirishga yo’naltiriladi. Natijada turizm infratuzilmasining yaxshilanishi turistlar sonini yanada oshiradi. Umuman olganda, olingan natijalar ekoturizm O‘zbekistonda barqaror turizm rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Turistlar sonining oshishi, investitsiyalarning ko‘payishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi

ekoturizmning iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik jihatdan katta salohiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu sababli kelajakda ekoturizmni rivojlantirishda ekologik muhofaza, zamonaviy infratuzilma va mahalliy aholi manfaatlarini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi .

Olingan natijalar ekoturizmning O’zbekistonda isteqbolli, ammo hali to’liq shakllanmagan turizm yo’nalishi ekanligini ko’rsatatdi. Eng muhim topilma – ekoturizmga oid rasmiy statistikaning alohida yuritilmasligi. Bu nafaqat tadqiqotchilar uchun to’siq, balki davlat siyosatini aniq maqsadlarga yo’naltirish imkoniyatini ham cheklaydi. O’zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun kuchli huquqiy – me’yoriy baza shallangan.

4-jadval

O’zbekistonda ekoturizmga oid asosiy huquqiy-me’yoriy hujjatlar (2022-2024)

Hujjat	Sana	Asosiy vazifa
PQ-232-son	30.04.2022	Ekologik turizm turlarini diversifikatsiya qilish
PQ-135-son	26.04.2023	Turizm salohiyatini jadal rivojlantirish
PF-81-son	31.05.2023	Ekologiya sohasini transformatsiya qilish
PQ-238 son	27.07.2023	Turizm islohotlarini jadallashtirish
PQ-21-son	**12.01.2024**	**Ekologik turizmni jadal rivojlantirish**
PF-9-son	12.01.2024	Turistlar oqimini keskin oshirish
PF-102-son	18.07.2024	Turizm infratuzilmasini yaxshilash

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2022–2024 – yillar mobaynida ekoturizmga bevosita yoki bilvosita aloqador 7 ta muhim hujjat qabul qilingan — ya'ni deyarli har yarim yilda bir yangi qaror yoki farmon. Bu davlat e'tiborining ushbu sohadagi izchilligini va ortib borayotganini yaqqol ko'rsatadi.

Ayniqsa, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son qarori — ekoturizmni birinchi marta mustaqil huquqiy soha sifatida belgilagan hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba bilan taqqoslasak, Gruziya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekoturizmni alohida davlat dasturi sifatida ajratish va maxsus infratuzilma yaratish turistlar oqimini 3–4 yil ichida ikki barobar oshirgan (UNWTO, 2023). Tailand va Kosta-Rika misolida esa ekoturizm milliy daromadning 15–20 foizini tashkil etadi — O'zbekistondagi hozirgi 10–15 foizlik ulush ushbu mamlakatlar tajribasini o'rganish orqali sezilarli oshirilishi mumkin. Shunday qilib, O'zbekiston ekoturizmda hali rivojlanishining dastlabki bosqichida tursa-da, xalqaro tajriba va mavjud huquqiy baza tez sur'atli o'sish imkoniyatini tasdiqlamoqda.

Ekoturizmni rivojlantirishda bir qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, ekoturizm ob'ektlariga olib boruvchi yo'llar va transport infratuzilmasi hali yetarli darajada rivojlanmagan. Ikkinchidan, ekoturizmga ixtisoslashgan malakali mutaxassislar — gidlar, ekologlar va menejerlar — soni kam. Uchinchidan, mahalliy aholi bu sohadagi foyda va imkoniyatlardan hali to'liq xabardor emas.

SWOT tahlili

Kuchli tomonlar (strengths) : boy tabiiy salohiyat, 7 ta huquqiy hujjat, 11,7 mln turist oqimi	**Imkoniyatlar (opportunities)** : UNWTO o’sish trendi, 500 mln dollar investitsiya rejasi, mintaqaviy turizm talabi
Zaif tomonlar (weaknesses) : Infratuzilma yetishmasligi, malakali kadrlar tanqisligi, alohida statistika yo’qligi	**Tahdidlar (threats)** : Iqlim o’zgarishi, raqobatchi mamlakatlar (gruziya, Qo’zog’iston)

Biroq ijobiy tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda, vizasiz tartib 94 ta davlatga kengaytirilgan, xalqaro marketing faollashmoqda. Ekoturizm nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki

tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ekologik madaniyatni oshirishga xizmat qiluvchi muhim soha sifatida tobora e'tirof etilmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi. Avvalambor, O’zbekiston ekoturizmni rivojlantirish uchun yetarli tabiiy, madaniy va geografik salohiyatga ega. Milliy bog’lar, biosfera rezervatlari va tog’ hududlari xorijiy va mahalliy turistlarni jalb qilish uchun katta imkoniyat yaratadi.Shuningdek, 2025-yilda 11,7 million turistlarning tashrifi umumiy turizmning o’sishini aks ettiradi. Shu jumladan , ekoturizmga qiziqish ham ortib bormoqda, ammo uning alohida ulushi hali rasmiy statistikada to’liq aks etmagan. Ekoturizmning barqaror rivojlanishi uchun ekologik muhofaza, zamonaviy infratuzilma va mahalliy aholi manfaatlarini uyg’unlashtirish zarur. Bu uch omilning birortasi e’tibordan chetda qolsa, ekoturizm o’z maqsadini yo’qotadi. 2030-yilgacha rejalashtirilgan 500 million dollarlik investitsiya va turistlar oqimini 20 millionga yetkazish maqsadi ekoturizm uchun ham yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Adabiyotlar roʻyxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik to‘g‘risida»gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son «O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son «O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi**.** Turizm statistikasi 2025-yil. — Toshkent, 2026
5. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Yillik hisobot**.** — Toshkent, 2025.

6. UNWTO**.** World Tourism Barometer. — Madrid: UNWTO, 2023.

7. TIES (The International Ecotourism Society). **Global Ecotourism** Report. — 2024.

8. Buckley, R. Ecotourism: Principles and Practices. — Wallingford: CABI Publishing, 2009.

9. Wearing, S., Neil, J. Ecotourism: Impacts, Potentials and Possibilities. — Oxford: Elsevier, 2009.

10. Ceballos-Lascuráin, H. Tourism, Ecotourism, and Protected Areas. — Gland: IUCN, 1996.